



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish uchun onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish bo'yicha

REGLAMENT

1-bob. Kirish qismi

1.1. Reglamentning maqsadi va vazifalari

Ushbu reglament oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish uchun onlayn arizalarni, ma'lumotlarni maxsus platformaga (keyingi o'rinlarda – Platforma) kiritish va undan foydalanish jarayonlarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Reglament quyidagi asosiy vazifalarni belgilaydi:

- platformaning asosiy funksiyalarini va foydalanish tartibini belgilash;
- platformaga tegishli ma'lumotlarni kiritish, yangilash va ularni boshqarish bo'yicha aniq qoidalar o'rnatish;
- platforma foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlash;
- platformadan samarali va xavfsiz foydalanishni ta'minlash.

1.2. Qo'llaniladigan terminlar va ta'riflar

Platforma – bu oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashishi bo'yicha arizalarni qabul qiluvchi elektron tizim.

Superadmin – platformani doimiy ishlashini ta'minlaydigan va nazorat qiladigan rol.

Talaba – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod sifatida platforma orqali ariza qoldiradigan rol.

Oliy ta'lim tashkiloti mas'ul xodimi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashadigan nomzod talabalar (keyingi o'rinlarda – talabgorlar)ning arizalarini ko'rib chiqadigan, qabul qiladigan yoki rad etadigan hamda oliy ta'lim tashkiloti bosqichida g'olib deb topilgan talabgorlarning hujjatlarini respublika bosqichiga yuboradigan rol.

Vazirlik mas'ul xodimi – respublika bosqichiga yuborilgan talabgorlarning ariza va hujjatlarini ko'rib chiqadigan, Ekspert guruhiga taqdim etadigan yoki belgilangan talablarga javob bermaydigan talabgorlarning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradigan rol.

Ekspert guruhi – talabgorlarning hujjatlarini ko‘rib chiqadigan, baholaydigan hamda hujjatlarida belgilangan talablarga zid bo‘lgan holatlar aniqlanganda talabgorlarning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradigan rol.

Apellyatsiya komissiyasi – talabgorlar tomonidan platforma orqali kelib tushgan apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqadigan va ularga javob yuboradigan rol.

1.3. Reglamentning qo‘llanilish doirasi

Reglament Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik), oliy ta‘lim tashkilotlarida platformadan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Reglamentning qoida va ko‘rsatmalari platformadan foydalanadigan mas‘ul xodimlar va talabgorlar uchun amal qiladi.

1.4. Platformaning qisqacha tavsifi

Platforma – bu oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashishi to‘g‘risidagi arizalar va hujjatlarini qabul qilish, oliy ta‘lim tashkiloti bosqichida g‘olib deb topilgan talabgorlarning ariza va hujjatlarini respublika bosqichiga yuborish, hujjatlarni Ekspert guruhiga taqdim etish, talabgorlarning baholarini yuborish, ularning apellyatsiya arizalarini qabul qilish va natijalarini taqdim etish jarayonlari bilan bog‘liq funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

2-bob. Platformani joriy etish tartibi

2.1. Platformani joriy etish

Platformadan foydalanish va ma‘lumotlarni kiritish hamda shakllantirish jarayoni ushbu reglamentning 1-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Platforma yagona markazlashgan tizim hisoblanadi. Platforma va undagi barcha ma‘lumotlar Vazirlik huzuridagi Raqamli ta‘lim texnologiyalarini rivojlantirish markazining Data markazida saqlanadi.

2.2. Dasturiy ta‘minotni o‘rnatish va sozlash

Platforma markazlashgan tarzda Superadmin tomonidan boshqariladi va platformaga barcha sozlamalar va o‘zgartirishlar faqat Superadmin tomonidan amalga oshiriladi.

2.3. Axborot xavfsizligi choralari

Axborot xavfsizligi platformaning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Superadmin, Vazirlik mas‘ul xodimi va oliy ta‘lim tashkiloti mas‘ul xodimlari platformaning axborot xavfsizligini Vazirlik tasdiqlagan axborot xavfsizligi siyosati va qoidalarga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshiradi.

Platformani texnik qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq va foydalanishda uchraydigan muammolarning barchasini bartaraf etish Superadmin tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Platformadan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari

3.1. Superadminning huquq va majburiyatlari

Huquqi: Platformaning mavjud barcha huquqlariga egalik qiladi va ularni boshqaradi. Serverlarini sozlaydi va nazorat qiladi.

Majburiyati: Platformaning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta‘minlaydi. O‘ziga tegishli login va parollarni o‘zgaralar qo‘liga tushib qolishini oldini olish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi. Vazirlik ko‘rsatmasiga ko‘ra platformaga o‘zgartirishlar kiritadi.

3.2. Talabaning huquq va majburiyatlari

Huquqi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod sifatida qatnashish istagi bo‘lganda platforma orqali ariza qoldiradi. O‘ziga tegishli ma‘lumotlarni belgilangan muddatlarda vakolat doirasida kiritish, tahrirlash va o‘chirish huquqlariga ega.

Majburiyati: Belgilangan muddatlar ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod sifatida qatnashish uchun platformada ariza qoldiradi. O‘ziga tegishli ma‘lumotlarni belgilangan talablar asosida vakolat doirasida tekshiradi hamda platformaga to‘g‘ri va asoslangan ma‘lumotlarni kiritadi.

Yuborilgan arizasi ma‘lum sabablarga ko‘ra rad etilgan taqdirda tegishli muddatlarda arizani tahrirlab, qayta yuboradi. Bunda talabgorning arizasi qabul qilingan bo‘lsa, uni tahrirlash yoki o‘chirib yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.3. Oliy ta‘lim tashkiloti mas‘ul xodimining huquq va majburiyatlari

Huquqi: Platforma orqali o‘ziga tegishli bo‘lgan shaxsiy kabinetidan foydalangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga talabgorlar tomonidan yuborilgan arizalarni ko‘rib chiqadi, qabul qiladi yoki rad etadi. Qabul qilingan arizalarni respublika bosqichiga yuboradi yoki oliy ta‘lim tashkiloti bosqichidan qaytaradi.

Majburiyati: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga qoldirilgan arizalarni ko‘rib chiqishda talabgorlarning ma‘lumotlarini vakolat doirasida ko‘rib chiqadi, platformaga to‘g‘ri kiritilganligini tekshiradi hamda belgilangan talablarga to‘g‘ri kelgan talabgorlarning arizalarini

qabul qiladi hamda oliy ta'lim tashkiloti bosqichidan respublika bosqichiga yuboradi. Bunda har bir talabgorlar uchun rektorning (direktorning) kafolat xati, ilmiy kengash qarori va oliy ta'lim tashkilotining imtihon natijalari yuklanishini ta'minlaydi.

Platformaga hujjatlari belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan talabgorlarning arizalarini oliy ta'lim tashkiloti bosqichidan rad etadi yoki qaytaradi.

3.4. Vazirlik mas'ul xodimining huquq va majburiyatlari

Huquqi: Platforma orqali o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy kabinetidan foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga respublika bosqichiga yuborilgan arizalarni ko'rib chiqadi, Ekspert guruhiga yuboradi yoki respublika bosqichidan qaytaradi. Respublika bosqichiga yuborilgan arizalarni ko'rib chiqish uchun qo'shimcha ishchi guruh jalb etadi.

Majburiyati: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga qoldirilgan arizalarni ko'rib chiqishda talabgorlarning ma'lumotlarini vakolat doirasida ko'rib chiqadi, platformaga to'g'ri kiritilganligini tekshiradi hamda belgilangan talablarga javob beradigan talabgorlarning hujjatlarini respublika bosqichidan Ekspert guruhiga yuboradi. Ma'lumotlarida kamchiligi bor yoki hujjatlari to'liq kiritilmagan talabgorlarning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradi.

Qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, platformada o'zgartirishlarni amalga oshirish yuzasidan takliflarni Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markaziga taqdim etadi.

3.5. Ekspert guruhining huquq va majburiyatlari

Huquqi: Platforma orqali o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy kabinetidan foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga ariza yuborgan talabgorlarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va baholaydi. Talabgorlarning hujjatlarida belgilangan talablarga zid bo'lgan holatlar aniqlanganda ularning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradi.

Majburiyati: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan talabgorlarning hujjatlarini oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangan baholash mezonlari bo'yicha xolisona baholaydi;

yakuniy natijalarga ko'ra qo'yilgan har bir ball uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

ballarni talabgorlarga faqat platforma orqali yuboradi.

3.6. Apellyatsiya komissiyasining huquq va majburiyatlari

Huquqi: Platforma orqali talabgorlar tomonidan kelib tushgan apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqadi hamda talabgorning ballarini o‘zgartiradi yoki o‘zgartirishsiz qoldiradi.

Majburiyati: Talabgorlar tomonidan kelib tushgan apellyatsiya shikoyatlarini belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi hamda natijasi bo‘yicha platforma orqali talabgorga javob yuboradi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

4.1. Reglamentning kuchga kirishi

Mazkur reglament tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi. Reglamentning kuchga kirishi bilan, barcha tegishli foydalanuvchilar va ishtirokchilar mazkur hujjatda ko‘rsatilgan qoidalarga, majburiyatlarga va tartiblarga amal qilishlari shart bo‘ladi.

4.2. Reglamentni o‘zgartirish va yangilash tartibi

Reglamentning amal qilish muddati cheklanmagan bo‘lib, faqat yangi versiyasi tasdiqlanib, e‘lon qilinganda yoki tegishli buyruq bilan bekor qilinganda tugatiladi. Har qanday o‘zgarishlar yoki yangilanishlar reglamentga kiritilishi mumkin, bu o‘zgarishlar Vazirlik tomonidan rasmiy ravishda tasdiqlanib, e‘lon qilinishi kerak.

4.3. Nizolarni hal etish tartibi

Ushbu reglamentni qo‘llashda yuzaga keladigan har qanday nizolar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida belgilangan tartibda hal etiladi. Nizolarni hal qilishda adolatli va oshkora yondashuv qo‘llaniladi.

Reglament talablarining buzilishi holatlarida, aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashishga onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha
reglamentga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish
uchun onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish va ma’lumotlarni
kiritish hamda shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etish
SXEMASI**

Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar	Davriylik
Superadmin	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlari jarayonlarida platformani doimiy ishlashini ta’minlaydi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlov jarayonlari davrida	Har yili
Talaba	Belgilangan talablarga muvofiq hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun platformaga joylaydi va ariza qoldiradi.	1-avgustdan 15-avgustga qadar	Har yili
Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun ariza topshirgan talabgorlarning tegishli hujjatlarini o‘rganib chiqadi, belgilangan talablarga to‘g‘ri kelgan arizalarini qabul qiladi hamda respublika bosqichiga yuboradi. Bunda har bir talabgor uchun rektorning (direktorning) kafolat xati, ilmiy kengash qarori va oliy ta’lim tashkilotining imtihon natijalarini yuklanishini ta’minlaydi. Platformaga hujjatlari belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan talabgorlarning arizalarini oliy ta’lim tashkiloti bosqichidan rad etadi yoki qaytaradi.	1-avgustdan 16-avgustga qadar	Har yili
Vazirlik mas’ul xodimi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun ariza topshirgan talabgorlarning tegishli hujjatlarini o‘rganib chiqadi, belgilangan talablarga to‘g‘ri kelgan arizalarini respublika bosqichidan Ekspert guruhiga yuboradi. Ma’lumotlarida kamchiligi bor yoki hujjatlari to‘liq kiritilmagan talabgorlarning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradi.	15-avgustdan 15-sentabrga qadar	Har yili

Ekspert guruhi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun ariza topshirgan talabgorlarning tegishli hujjatlarini o'rganib chiqadi va baholaydi. Talabgorlarning hujjatlarida belgilangan talablarga zid bo'lgan holatlar aniqlanganda ularning arizalarini respublika bosqichidan qaytaradi.	16-sentabrdan 25-sentabrga qadar	Har yili
Apellyatsiya komissiyasi	Platforma orqali talabgorlar tomonidan kelib tushgan apellyatsiya arizalarini ko'rib chiqadi, talabgorning ballarini o'zgartiradi yoki o'zgartirishsiz qoldiradi. Shuningdek, natijasi bo'yicha platforma orqali talabgorga javob yuboradi.	Appelyatsiya arizasi kelib tushganidan so'ng 3 ish kuni ichida	Har yili

Izoh. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan belgilangan muddatlarga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashishga onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha reglamentga
2-ilova

**Talaba tomonidan platformaga ma’lumotlarni kiritish va boshqarish
TARTIBI**

Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
Talaba	OneID tizimi orqali avtorizatsiyadan o‘tib, platformadagi shaxsiy kabinetiga kiradi.	1-avgustdan 15-avgustga qadar
Talaba	Ilmiy ishlari, erishgan yutuqlari hamda til bilish sertifikatini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni platformadagi shaxsiy portfoliosiga yuklaydi.	Ariza yuborishdan oldin
Talaba	Shaxsiy ma’lumotnoma, reyting daftarcha nusxasi, ilmiy rahbar xulosasi, dekanat tavsiyanomasi kabi hujjatlarni ilova qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun platforma orqali ariza qoldiradi.	1-avgustdan 15-avgustga qadar
Talaba	Ariza holatini platformada kuzatib boradi.	Arizalar ko‘rib chiqish mobaynida
Talaba	Arizasi rad etilgan taqdirda uni tahrirlab qayta yuboradi.	Ariza yuborish muddati yakunlangunga qadar
Talaba	Baholash mezonlari bo‘yicha olgan ballarini platforma orqali oladi.	Natijalar e’lon qilinganidan so‘ng
Talaba	Olgan ballaridan norozi bo‘lgan taqdirda platforma orqali apellyatsiya shikoyatini yuboradi.	Natijalar e’lon qilinganidan so‘ng 24 soat ichida
Talaba	Yuborgan apellyatsiya shikoyati natijasi bo‘yicha javob oladi.	Apellyatsiyalar ko‘rib chiqilganidan so‘ng

Izoh. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i bilan belgilangan muddatlarga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashishga onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha reglamentga
3-ilova

Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi tomonidan platformaga ma’lumotlarni kiritish va boshqarish TARTIBI

Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi	OneID tizimi orqali avtorizatsiyadan o‘tib, platformadagi shaxsiy kabinetiga kiradi.	1-avgustdan 16-avgustga qadar
Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun ariza topshirgan talabgorlarning tegishli hujjatlarini o‘rganib chiqib, qabul qiladi yoki rad etadi.	Ariza kelib tushganidan so‘ng 3 ish kuni mobaynida 16-avgustga qadar
Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi	Qabul qilingan arizalarni respublika bosqichiga yuboradi yoki oliy ta’lim tashkiloti bosqichidan qaytaradi.	Ariza qabul qilinganidan keyin 1 ish kuni mobaynida
Oliy ta’lim tashkiloti mas’ul xodimi	Arizalarni respublika bosqichiga yuborishda talabalarning o‘rtacha diplom ballari, rektorning (direktorning) kafolat xati, ilmiy kengash qaroridan ko‘chirma va oliy ta’lim tashkilotining imtihon natijalarini platformaga yuklaydi.	Ariza kelib tushganidan so‘ng 5 ish kuni mobaynida 16-avgustga qadar

Izoh.

1. Barcha subyektlar belgilangan tadbirlarni bajarishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning o‘quvchi yoshlarini rag‘batlantirish choralari to‘g‘risida” 1993-yil 5-fevraldagi PF–555-son hamda “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2021-yil 10-sentabrdagi PF–6309-son Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining tegishli buyrug‘ida belgilangan talablarga amal qiladi.

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i bilan belgilangan muddatlarga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.